

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 41 (1640), 2026-yil 28-fevral, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



RUHI BAQUVVAT, G‘AYRATI BALAND, ORIYATI MUSTAHKAM INSONLAR YURTI – SURXONDARYO YANGI TARAQQIYOT DAVRIGA QADAM QO‘YMOQDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 26-27-fevral kunlari Surxondaryo viloyatida bo‘ldi. Davlatimiz rahbari tashrifning ikkinchi kuni viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.



Bahor Surxondaryodan boshlanadi. Bu fasl faqat uyg‘onish pallasi emas, balki umid ila yerga urug‘ qadaladigan, boshlangan yil uchun ulkan rejalarni tuziladigan davr hamdir. Mamlakatimiz yetakchisining Surxon vohasiga tashrifi chog‘ida yurtodoshlarimiz bahor nafasini yurak-yurakdan his etdi.

Bugun surxondaryoliklar 3 million nufusga ega katta el. Shuncha aholining hayotini birdek farovon qilish, hayotdan rozi bo‘lib

yashashiga erishish oson emas. Buning uchun nafaqat mashaqqatli mehnat, balki uzoqni ko‘zlab puxta reja tuzishga qodir yuksak intellekt ham talab etiladi. Eng muhimi, islohotlar oddiy odamlar tafakkuridagi evrilishlardan boshlanishi zarur. Zero, inson, jamiyat o‘zgarsa, islohotlar ortga qaytmay tus oladi. Yangi O‘zbekiston shabadas keza boshlagan ilk paytlardayoq vohada ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan birga shaxs

tarbiyasiga ham jiddiy e‘tibor qaratildi. Pirovardida oxirgi o‘n yilda vohaliklar hayoti tubdan o‘zgardi. Masalan, o‘tgan davrda hududda 5 milliard dollarlik 8000 dan ortiq loyiha ishga tushirildi. Har bir loyiha hisobiga yuzlab, hatto minglab xonadonlar doimiy va yuqori daromad manbaiga ega bo‘ldi. Oilalar farovonligi tufayli qalblarga xotirjamlik kirdi.

Bir paytlar viloyat eng olis va yopiq hudud sifatida ko‘rilardi. Shu bois, ishlab chiqarishni

ko‘paytirish, sarmoyadorlarni jalb etish uddalab bo‘lmas ishdek tuyulardi. Bugun marra yanada baland olinmoqda. Xitoy, AQSH, Rossiya, Hindiston, Avstriya, Vengriya kabi davlatlar bilan investitsiya va savdo bo‘yicha 10 milliard dollarlik kelishuvlarga erishildi. Bunday yirik sarmoya yana necha yuz minglab oilalar farovonligiga hissa qo‘shadi.

Ko‘plab masalalarga iqtisodiy barqarorlik yechim bo‘ladi. Shu ma’noda, keyingi yillarda

mamlakatimiz iqtisodiyotida juda katta o‘zgarish kuzatildi. Bu, o‘z o‘rnida, ijtimoiy sohalar rivojiga ham asos bo‘lmoqda. Xususan, keyingi yillarda ayollar, yoshlar, umuman, aholi uchun ko‘plab yangi ish o‘rinlari ochildi. O‘z navbatida, bu maktabgacha ta’lim tashkilotlariga talabni oshirdi. Bolalarni bog‘chaga berish madaniyati shakllandi. Bunga yechim sifatida so‘nggi to‘qqiz yilda bog‘chaga qamrov 28 foizdan 68 foizga yetkazildi.

Bundan tashqari, 23 ta yangi maktab qurilgani, 448 tasi ta’irlangani, qo‘shimcha 102 ming o‘quvchi o‘rni ochilgani ham bugungi, ham kelgusi farovonlik kafolati bo‘ldi. “To‘palang” suv ombori zaxirasidan unumli foydalanish hisobidan Termiz shahri va yana 10 tumandagi 563 ming kishining ichimlik suv ta’minoti yaxshilangani, shubhasiz, voha ahli uchun tarixiy voqeaga aylandi.

Davomi 2-betda

KREATIV IQTISODIYOT – BARQAROR O‘SISHNING MUHIM DRAYVERI



Mulohaza

O‘ZBEKISTON 2030

Jamiyatdagi fikrlash uslubi o‘zgargani sari iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy institutlar va taraqqiyot modellari ham yangilanib boradi. Bugun insoniyat ana shunday murakkab va mas’uliyatli bosqich ostonasida turibdi. Jahon iqtisodiyoti global moliyaviy beqarorlik, resurslar taqchilligi, raqamli inqilob va geosiyosiy ziddiyatlar kabi o‘zaro bog‘liq sinovlarni boshdan kechirmoqda. Bu holat an’anaviy — xomashyo va moddiy resurslarga tayangan iqtisodiy modellarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Aynan shunday sharoitda kreativ iqtisodiyot tushunchasi oddiy iqtisodiy yo‘nalish emas, balki taraqqiyotning mutlaqo yangi paradigmasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning markazida insonning intellektual salohiyati, ijodiy tafakkuri va innovatsion g‘oyalari turadi. Kreativ iqtisodiyot — bilim, iste’dod va madaniy merosni iqtisodiy qiymatga aylantirish

jarayoni. Axborot texnologiyalari, raqamli industriyalar, dizayn, media, arxitektura, startap ekotizimlari kabi sohalar uning harakatlantiruvchi kuchidir. Bu modelda eng qimmatli kapital — inson kapitali, eng muhim resurs esa ilmdir.

Davomi 3-betda

SUV KELSA GAR – NUR KELGAY

Yoshim to‘qsonga yaqinlashdi. Bu orada nimalarni ko‘rmadik. Eh-he!..

...Oilada o‘n o‘g‘il edik. Uch akam Ikkinchi jahon urushiga olib ketildi. Shu bo‘yi daragi chiqmadi. Ulardan keyin qolgan biz — yetti og‘a-inini enam rahmatli yolg‘iz boshi bilan katta qildi. O‘sha davrning onalariyam zap matonati bo‘lgan ekan-da... Zamonning zayli, sharoitning sho‘rishi tufayli o‘n yoshimda 1-sinfga borganman. Ko‘p vaqtimiz maktabdan ko‘ra paxta dalasida o‘tgan bo‘lsa ham

astoydil o‘qishga intildik. Yillar o‘tib, o‘qituvchi bo‘ldim. Boysunning o‘zim tug‘ilgan Pulhokim qishlog‘idagi maktabda 31 yil direktorlik qildim. Bu maktabdan o‘nlab fan doktorlari, olimlar yetishib chiqdi. Ta’lim sifatini respublika darajasiga olib chiqishga urindik, ba’zan buni uddaladik ham. Ammo o‘qituvchilarning kosasi yaqin o‘n yilgacha oqarmadi.

Davomi 2-betda

Dil izhori

O‘QITUVCHINI E‘ZOZLAYOTGAN SUYANCHIMIZ BOR

Bugun qalbimizda bahor nafasi. Odatda qishning qirovli kunlaridan so‘ng tabiat uyg‘onishi hodisasini yangilanish, yasharish deb quvonamiz, sog‘inchi hissimizni o‘zaro bo‘lishamiz. Shunday fayzli-tarovatli, ulug‘ ayyom kunlarida Prezidentimizning Surxondaryoga tashrifi barchamizga yanada quvonch, g‘urur ulashdi.

Ikki kundirki, davlatimiz rahbarining viloyatimizga tashrifi tafsilotlarini kuzatar ekanmiz, yurtodoshlarimiz turmush sharoitini yanada yaxshilash

borasidagi yangi tashabbuslardan ruhlanib yuribmiz.

Davomi 2-betda

1-mart – Zulfiya favallud topgan kun



MENI OG‘USHLAGAN HAYOT NAQ O‘FTOB

Yangi qo‘shiq talab unda har saboh

6

RUHI BAQUVVAT, GʻAYRATI BALAND, ORIYATI MUSTAHKAM INSONLAR YURTI – SURXONDARYO YANGI TARAQQIYOT DAVRIGA QADAM QOʻYMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Bu davrda 688 ta koʻp qavatli uy qurilgan 32 ming oilaning Vatan ichra kichik vatanli boʻlishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, Angor, Boysun, Jarqoʻrgʻon, Sariosiyo va Termiz tumanlarida barpo etilayotgan “Yangi Oʻzbekiston” massivlari aholini zamonaviy uy-joy bilan taʼminlash barobarida urbanizatsiya darajasi yaxshilanishiga xizmat qilyapti.

— Surxondaryo nafaqat tabiati goʻzal zamin, balki ruhi baquvvat, gʻayrati baland, oriyati mustahkam insonlar yurtidir. Surxonni rivojlantirish yangi Oʻzbekistonning janubiy tayanch ustunini mustahkamlash demakdir, — dedi davlatimiz rahbari.

Janubiy tayanchni mustahkamlash esa erishilgan yutuqlarni tahlil etib, kelajak rejalariga munosib saʼy-harakatni talab etadi. Yigʻilishda viloyat hamda tuman hokimlari oldida joriy yil investitsiyalar hajmini 3 milliard, eksport qiymatini 1 milliard dollarga yetkazish vazifasi turgani qayd etildi. Hududda kambagʻallikni 2,8, ishsizlikni 4,5 foizgacha tushirish, Termiz shahri, Angor, Denov, Jarqoʻrgʻon, Qiziriq va Muzrabot tumanlarini kambagʻallik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish muhim ekani taʼkidlandi.

Surxondaryo iqtisodiyotida sanoatning ulushi soʻnggi 9 yilda 5 karra oʻsib, 10 foizga yetdi. Lekin voha imkoniyati bundan ham baland marallarni koʻzlashga imkon beradi. Shu maʼnoda, sanoat hajmini oshirishda viloyatdagi konlarni oʻzlashtirish surʼatini jadallashtirish zarurligi qayd etildi.

Joriy yilda Boysundagi “Sanjar”,

Oltinsoydagi “Oqsuv”, kelasi yili “Fangart” konlarida koʻmir qazib olishni boshlash topshirigʻi berildi. Janubiy Afrikaning “Sosol” kompaniyasi koʻmirdan polipropilen, polietilen va kauchuk ishlab chiqarishga qiziqish bildirgan. Sariosiyodagi “Qorakon”, “Jemsonit”, “Chuqur”, “Bayram-1” konlariga ham xitoylik investorlar 1 milliard dollar investitsiya kiritishga tayyor. Boysundagi “Bezaktop” konida tabiiy tosh zaxiralari oʻrganilmay turibdi. Ushbu konlarda zarur ishlarni boshlash vazifasi qoʻyildi.

Yangi Oʻzbekistonda masalalar hal etilishi bilan birga iqtisodiy imkoniyatga ham aylantirilyapti. Xususan, yigʻilishda Termiz xalqaro savdo markazi natijalari alohida qayd etildi. Oʻtgan yili markazga 800 mingdan ortiq Afgʻoniston fuqarosi kelgan. Natijada 320 million dollarlik mahsulot eksport qilingan. Quvonarlisi, markaz yanada kengaytiriladi. Uning hududi ming gektarga yetkaziladi. Bu borada ham aniq rejali ishlar belgilab berildi. Yangi loyihalar natijasida tadbirkorlar va xaridorlar karrasiga oshadi, qonun ustuvorligini taʼminlash maqsadida markazda maxsus prokuratura va ichki ishlar boʻlimi faoliyati yoʻlga qoʻyiladi.

Shuningdek, endi markaz hududidagi tovar savdosi va xizmatlar eksport sifatida baholanishi, ularga nisbatan qoʻshilgan qiymat soligʻi “mol” stavkada qoʻllanishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari qishloq xoʻjaligi imkoniyatlariga toʻxtalar ekan, viloyatdagi 35 ming gektar tomorqada 3-4 marta hosil olinayotgani, bunday koʻrsatkich boshqa biorta viloyatda yoʻqligini taʼkidladi.

Termiz tumanidagi “Tomorqa maktabi”ning ijobiy tajribasini butun Surxondaryoda yoʻlga qoʻyish zarurligi koʻrsatib oʻtildi. Shu munosabat bilan Angor, Uzun, Denov tumanlarida ham xuddi shunday maktablarni tashkil etish, har bir viloyatda 2 tadan “Innovatsion tomorqa maktabi”ni ishga tushirish zarurligi taʼkidlandi.

Surxondaryo sharoitida issiqxonada mahsulot yetishtirish boshga joylardagiga nisbatan 2-3 barobar arzon tushishi qayd etildi. Bu yil Ispaniyaning Almeriya hududi tajribasi asosida ming gektarda quyoshda isitiladigan issiqxonalar tashkil etilishi, bunday issiqxona quradigan tadbirkorlarga yer 5 yilga bepul ijaraga berilishi, yer osti suvi uchun toʻlovdan 3 yilga ozod etilishi maʼlum qilindi.

Viloyatda foydalanilmay turgan yana bir katta imkoniyat yaylovlardir. Jumladan, Boysunda 197 ming gektar yaylov bor. Agar Darband daryosidagi nasoslar tiklanib, suv chiqarilsa, 10 ming gektar yaylovni foydalanishga kiritish imkoni mavjudligi aytiladi.

Zaxiradagi yaylovlarni oʻzlashtirish uchun boshlangʻich narx normativ qiymatning 1 foizi miqdorida etib belgilanib, auksionga chiqarilishi taʼkidlandi. Auksiondan yor olgan tadbirkorlarga 10 yilga 4 yillik imtiyozli davr bilan 14 foizli kredit ajratiladi. Har oʻn gektar yerga suv olib kelish uchun 120 million soʻmgacha subsidiya beriladi.

Viloyatda parrandachilik, chorvachilik, asalarichilik loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari ham belgilab olindi.

Yoʻl va transport infratuzilmasi viloyatdagi eng ogʻriqli masalalardan. Hozir Boysun

va Denov tumanlarini bogʻlovchi yoʻlning 111 kilometri sement-beton qoplamaga oʻtkazilmoqda. Bu yoʻl ishga tushirilsa, yuk tashish hajmi 2 karra oshishi, tashuv vaqti 3 soatdan 1,5 soatga qisqarishi qayd etildi.

Joriy yilda yurtimizni Afgʻoniston va Tojikiston bilan bogʻlaydigan 178 kilometrli magistralni kapital taʼmirlash, “Toshguzar — Boysun — Qumqoʻrgʻon” uchastkasini tezyurar poyezdga moslash, “Qumqoʻrgʻon — Quduqli” temir yoʻlini elektrlashtirish ishlari boshlanadi. Termiz — Istanbul, Termiz — Dubay yoʻnalishlarida yangi aviareyslar yoʻlga qoʻyiladi.

Yangi avtobuslar olib kelinib, Shoʻrchi, Denov, Sariosiyo, Sherobod va Boysun tumanlaridan Termiz shahriga eltuvchi yoʻllarda qatnovga qoʻyiladi.

Yil oxirigacha Muzrabot tumanidagi 56 ming kishiga ilk bor markazlashgan ichimlik suv yetkazib berish loyihasi yakunlanadi. Muzrabot, Oltinsoy, Angor, Qiziriq va Boysun tumanlari markaziga kanalizatsiya oʻtkazish ishlari boshlanadi.

“Mustaqillikning 25 yilligi” yirik gazni qayta ishlash majmuasidagi texnologik murakkab masalaga hamkorlar bilan ilmiy yechim topilgani qayd etildi.

— Biz avariyaning ham toʻxtatamiz, Surxondaryo iqtisodiyotiga katta turki beradigan loyihani ham boshlaymiz, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari turizm salohiyatiga toʻxtalib, viloyatda Hakim Termiziy, Sulton Saodat, Kokildor ota, Qirgʻiz qiz kabi 150 dan ziyod madaniy meros obyekti borligi, Hisor, Boysuntogʻi, Koʻhitang, Bobotogʻda alpinizm,

trekking, ekoturizm uchun katta imkoniyatlar mavjudligini qayd etdi. Bularni toʻliq ishga solib, yiliga 1 milliard dollarlik tushum qilish mumkinligi taʼkidlandi.

Eski Termiz yodgorligi toʻliq oʻrganilmagan. Buddizm madaniyatiga oid Fayoztepa, Qoratepa, Dalvarzin, Zurmala kabi yodgorliklarning turizm salohiyatidan foydalanib, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Tailanddan yiliga 500 ming sayyohni jalb qilish imkoniyati mavjudligi koʻrsatib oʻtildi.

Surxondaryoda 8000 dan ortiq yosh kurash bilan muntazam shugʻullanmoqda. Davlatimiz rahbari mutasaddilar oldiga joriy yilda Denovdagi “Zamondosh” oromgohi negizida kurashchilar uchun zamonaviy oʻquv-mashgʻulot bazasini qurib berish vazifasini qoʻydi. Boysundagi maktab-internatda yangi oʻquv yilidan sport bilan birga maktab darslarini ham yoʻlga qoʻyish kerakligi qayd etildi.

Prezidentimiz viloyat faollari, yoshlar va nuroniylar bilan muloqot qildi. Hokimlar va mutasaddilarning hisoboti tinglandi. Davlatimiz rahbari belgilangan vazifalar ijrosini qatʼiy nazoratga olish, har bir yoʻnalishda aniq natijaga erishish boʻyicha tegishli topshiriqlar berdi.

Shundan soʻng Prezidentimiz Termiz tumanidagi “Surkhon Sandwich” korxonasining bazalt mahsulotlar ishlab chiqarish liniyasi faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimizda keng koʻlamli bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Bunday saʼy-harakatlar ilmiy yondashuv, zamon talabi asosida amalga oshirilyapti. Shu bois, har bir yirik loyiha va infratuzilma obyektda energiya tejankorligiga ustuvor eʼtibor qaratilmoqda.

Bu, oʻz oʻrnida, bazalt xomashyosi va undan tayyorlanadigan energiya samarador plita hamda qurilish materiallariga talabni oshirmoqda. Loyiha qiymati 26 million dollarga teng korxona yiliga 30 ming tonna bazalt xomashyosini qayta ishlash quvvatiga ega. Bu 345 milliard soʻmlik tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

Mahsulotlar Tojikiston va Afgʻonistonda xaridorini topmoqda. Bu ham vohaning iqtisodiy quvvati oshib borayotganidan dalolat. Zero, mahsulotga kerakli xomashyoning 95 foizi viloyatning Oltinsoy tumanidagi konlardan olinyapti. Korxonaga Xitoyning zamonaviy texnologik uskunalari oʻrnatilgan. Bu yerda 200 kishining doimiy bandligi taʼminlangan.

Prezidentimiz ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishar ekan, mahsulotlar sifatini yanada oshirish, mahalliyashtirish darajasini kengaytirish va eksportbop yoʻnalishlarni rivojlantirish muhimligini taʼkidladi.

Umuman, yurtimizda qurilish sohasining ilmiy asoslarini mustahkamlash, buning uchun qurilish materiallari boʻyicha ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari shu yerda viloyatning qurilish materiallari sanoatiga doir taqdimot bilan tanishdi.

Shu bilan Prezidentimizning Surxondaryo viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Boboravshan GʻOZIDDINOV,
Avazbek XUDOYQULOV,
Sarvar TOʻRAYEV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbirlari



SUV KELSA GAR – NUR KELGAY



Xonim TOSHBOYEV,
Boysun tumani nuroniylar jamoatchilik kengashi faoli,
“El-yurt hurmati” ordeni sohibi

2018-yili davlatimiz rahbari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida oʻtkazilgan yigʻilishda keksalarga soʻz berdi. Bizni astoydil diqqat bilan tingladi. Boysunda koʻpdan buyon davom etib kelayotgan ichimlik suv taqchilligi masalasi haqida aytdik. Shundan soʻng Prezidentimiz topshirigʻiga binoan Boysun tumaniga Xoʻjamayxona bulogʻidan 37 kilometrli magistral tarmoq tortildi. Bugun Boysun ahli shu suvdan bahramand boʻlib, mazkur savobli ish boshida turganlarni duo qilib yashamoqda.

Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan “Toʻpalang” suv omboridan foydalanish hisobiga Surxondaryo viloyatidagi suv taʼminotini yaxshilash loyihasi koʻtarildi. Juda salmoqli va keng koʻlamli ushbu egzu tashabbus doirasida viloyat hududi boʻylab qariyb 246 kilometr masofaga suv tarmoqlari tortildi hamda ichimlik suv saqlanadigan 8 ta hovuz barpo etildi. Loyihaning birinchi bosqichida Sariosiyo, Denov, Shoʻrchi va Qumqoʻrgʻon tumanlaridagi 35 ta, ikkinchi bosqichida Oltinsoy tumanidagi 16 ta, Bandixon tumanidagi 17 ta, Qiziriq, Sherobod, Angor va Muzrabot tumanlaridagi 69 ta mahalla aholisining toza ichimlik suv taʼminoti yaxshilandi. Uchinchi bosqichda esa Termiz shahridagi 20 ta mahalla toza ichimlik

suvdan bahramand boʻla boshladi. Bu raqamni eshitib, “Shu paytgacha shuncha odam qanday suv ichgan va qanday kun kechirgan ekan?” degan savol tugʻilishi shubhasiz.

Kuni kecha davlatimiz rahbari ishtirokida “Toʻpalang” suv ombori suvidan foydalanish hisobiga Surxondaryo viloyatida ichimlik suv taʼminotini yaxshilash loyihasining amaliy natijalari bilan tanishish marosimi boʻlib oʻtdi. Unda faol nuroniylar sifatida soʻzga chiqdik.

Inson yoshi ulgʻaygani sayin oʻtgan yillari va bugungi turmushini, bosib oʻtgan hayot yoʻlini qiyoslab, tahlil qilaverar ekan. Keyingi yillardagi egzu ishlarni koʻrib, oʻzimiz yosharayotgandek his etaman. Bunday gʻamxoʻrlikdan elimiz juda mamnun. Ayniqsa, qutlugʻ Ramazon kunlarida voha keksalari shunday qulayliklar yaratib berilgani uchun tashakkur aytib, Yaratgandan Vatanimizdagi tinchlik, egzu ishlarga bardavomlik soʻrab duo qilyadik. Axir dunyoda suvdan koʻra aziz, hayotbaxsh neʼmat yoʻq. Mana shu neʼmatga yetib turganimiz uchun ham shukronasini ado etib yurishimiz kerak.

Shu kunlarda Oʻzbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “Suv keltirgan elda aziz” sheʼriini yodlab, davralarda ham yoʻshib aytib yuribman. Keling, sizlarga ham esimda qolganlarini aytib beray:

Suv kelsa gar – nur kelgaydir,
Yashnar kent-u qishloqlar,
Yuz ming qalbdagi goʻyo bordan
Porlar ming-ming chiroqlar.

Suv keltirgan elda aziz,
Suv keltirmoq – mard ishi,
Davlat ishi – xalq ishidir,
Xalq ishi – davlat ishi.

Duoga qoʻl oching demak,
Hojibobo, oqsoqol:
Toki shu el, shu xalq, Vatan
Aslo topmasin zavol.

Dunyo turguncha bor boʻlsin,
Parvardigor yor boʻlsin,
Suv keltirgan mardlarining
Davlati poydor boʻlsin!



Dil izhori



OʻQITUVCHINI EʼZUZLAYOTGAN SUYANCHIMIZ BOR

Boshlanishi 1-betda




Hilola XUDOYMURODOVA,
Qiziriq tumanidagi 36-maktab oʻqituvchisi

oʻquvchi oʻrni ochildi. Bu raqamlar oddiy koʻrsatkichlar emas. Har birining zamirida avlodlar kamoloti, odamlarning, ayniqsa, qishloq ahli, bir umr bolasini bogʻchaga berish niyati bilan yashagan qishloq onalarining orzulari roʻyobi bor.

Prezidentimiz oʻqituvchilarning oylik maoshini 1000 dollarga yetkazaman degan edi. Oʻsha paytda bunga birov ishongan, birov ishonmagandir, ammo bugun men 2000 dollardan ortiq maosh olyapman.

Sizga bir misol aytaman. Bundan oʻn yil oldin — 2016-yili kreditga uy olganman. Oʻshanda oylik maoshim atigi 800 ming soʻm, kredit toʻlovimiz esa 1 million 200





KREATIV IQTISODIYOT – BARQAROR O'SISHNING MUHIM DRAYVERI



Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Davlat miqyosida kreativ iqtisodiyot iqtisodiy diversifikatsiyaning strategik vositasiga aylanmoqda. U iqtisodiyotni xomashyoga qaramlikdan xalos etadi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot va xizmatlar yaratishga zamin hozirlaydi, yangi ish o'rinlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, milliy brend va madaniy imijni mustahkamlab, mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi. Eng muhimi, u yosh avlod uchun o'z iqtidori va tashabbusini ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu yil 12-fevral kuni davlatimiz rahbari kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniyat muassasalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi kreativ makonlarni barpo etishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Kreativ iqtisodiyot dunyo amaliyotida allaqachon barqaror o'sishning muhim drayveriga aylangan. Jahon yalpi ichki mahsulotida uning ulushi 3-7 foizni tashkil etayotgani bejiz emas. Bu raqamlar ortida sanoat yoki xomashyo emas, balki g'oya, dizayn, raqamli texnologiya, madaniy mahsulot va intellektual mehnat turibdi. Kreativ sohalarning qiymati shundaki, ular yuqori qo'shilgan qiymat yaratadi, eksport salohiyatiga ega va global bozorda tez moslasha oladi.

Mamlakatimizda 2024-yili kreativ iqtisodiyotning YIMdagi ulushi 3,7 foizni yoki 56,8 trillion so'mni tashkil etdi. 770,6 million dollarlik eksport hajmi milliy intellektual mahsulot va xizmatlarimiz xalqaro bozorda o'z o'rniiga ega bo'layotganini ko'rsatadi. Sohada

qariyb 320 ming kishining bandligi esa kreativ iqtisodiyot faqat nazariy tushuncha emas, balki real mehnat bozori va daromad manbai ekanini anglatadi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotning yangi — intellektual va innovatsion qatlamini shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Kreativ iqtisodiyot jamiyat tafakkurining iqtisodiy ifodasidir. Aholining katta qismi yoshlardan iborat ekani, raqamli infratuzilma jadal rivojlanayotgani va boy madaniy merosimiz mavjudligi — bularning barchasi katta salohiyatni anglatadi. Biroq salohiyatning o'zi natija bermaydi. Uni harakatga keltiradigan omil erkin fikr, ochiq raqobat muhiti, zamonaviy ta'lim va institutsional qo'llab-quvvatlovdir.

2024-yili kreativ iqtisodiyot to'g'risida alohida qonun qabul qilinishi sohaning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamladi. Ilgari kreativ faoliyat ko'proq tashabbus va alohida loyihalar doirasida amalga oshirilgan bo'lsa, endi u mustaqil iqtisodiy yo'nalish sifatida e'tirof etildi. Bu bozor qoidalarining aniqlashuvi, huquqiy himoya mexanizmlari kuchayishi va davlat qo'llab-quvvatlovining tizimli shakliga o'tganidan dalolat.

Kreativ industriya parki tashkil etilishi va uning rezidentlari uchun maxsus soliq rejimi joriy qilinishi iqtisodiy rag'batlantirishning amaliy mexanizmiga aylandi. Daromad solig'i va ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 6 foizga tushirilishi sohadaqi tadbirkorlar uchun yangi imkoniyat eshigini ochdi. Bu imtiyozlar g'oyani qo'llab-quvvatlash, innovatsiyani rag'batlantirish va resurslarni mahsulot



sifati hamda yangi bozorlarni o'zlashtirishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

2030-yilga qadar kreativ iqtisodiyotning YIMdagi ulushini 5 foizga yoki 145 trillion so'mga yetkazish, eksportni 1 milliard dollarga olib chiqish va sohada band fuqarolar sonini 500 mingdan oshirish kabi maqsadlar strategik qarash va uzoq muddatli rejalashtirish samarasidir. Bu ko'rsatkichlar faqat miqdoriy o'sishni emas, balki iqtisodiyotning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini anglatadi.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish yangi tarmoq yaratish emas, balki inson kapitaliga ustuvor ahamiyat berish, g'oyani strategik resurs sifatida tan olish va iqtisodiy siyosatni tafakkur siyosati bilan uyg'unlashtirish demakdir.

Qonun va imtiyozlar — vosita, maqsad emas. Asl maqsad — jamiyatda ijodkorlik muhitini qoray toptirish, inson tafakkurini iqtisodiy qiymatga aylantira oladigan tizimni shakllantirish. Agar g'oya erkin harakatlansa, intellektual mehnat qadrlansa va tashabbus institutsional qo'llab-quvvatlansa, kreativ iqtisodiyot raqamlardan ham kattaroq natija — milliy taraqqiyotning yangi modelini yaratadi.

Taqdimotda Toshkent shahrida barpo etiladigan Kreativ industriya parki konsepsiyasi atroflicha ko'rib chiqildi. Loyiha mazmunan binolar majmuasi emas, balki ijodiy tafakkur ekotizimini shakllantirishga qaratilgan yaxlit makon sifatida talqin etildi. Unda yashil bog'lar va art-obyektlar bilan uyg'unlashgan muhit, xalqaro dasturlash tarmog'ining Toshkent maktabi, kitob kafesi, sport maydonlari, ijodiy pavilyonlar, kovorking markazi va ofislar, kino va video ishlab chiqarish maydonlari, ovoz yozish studiyasi, kreativ industriya kampusi hamda yoshlar va ijodkorlar uchun mehmonxona barpo etilishi rejalashtirilmoqda.

Bunday infratuzilma g'oyaning tug'ilishi, uning muhokamasi, ishlab chiqilishi va bozorga chiqishiga barcha bosqichni bir hududda mujassam etadi. Ya'ni park ijodiy jarayonni parchalangan holatdan tizimli shakliga

o'tkazish vositasidir. Loyihaning davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilishi esa kreativ iqtisodiyotda hamkorlik modeli ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Shuningdek, Yangi Toshkent hududi va Nukus shahrida ham kreativ parklar tashkil etish rejalashtirilgani ushbu tashabbusning qamrovi kengayishini anglatadi. Yangi Toshkentda rezidentlar uchun ijara maydonlari, studiyalar, media va anjuman zallari, tijorat va xizmat ko'rsatish obyektlari joylashtiriladi. Nukus shahrida esa Istiqbol bog'ida pavilyon rekonstruksiya qilinib, ko'p funksiyali jamoat-madaniyat markaziga aylantiriladi.

Nukusdagi loyihaning e'tiborli jihati unda O'zbekistonning “EKPSO — 2025”dagi milliy pavilyoni joylashtirilishi va yonida zamonaviy kutubxona barpo etilishidir. Bu qaror kreativ makonni nafaqat iqtisodiy, balki ma'rifiy va madaniy markazga aylantirish g'oyasini ifoda etadi.

Yig'ilishda yurtimizdagi madaniyat markazlari faoliyati tanqidiy tahlil qilindi. Respublika bo'yicha 800 dan ortiq madaniyat markazining yarmidan ko'pi ta'mirlab holatda ekani qayd etildi. Bu raqam oddiy statistika emas, balki infratuzilmaning ma'naviy hayotdan ortda qolayotganini ko'rsatuvchi jiddiy signaldir. Aksariyat markazlar faoliyati hanuz an'anaviy bayram tadbirlari bilan cheklanib, doimiy ijodiy muhit va zamonaviy xizmat turlarini shakllantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani ta'kidlandi.

Shu bois, madaniyat markazlarini zamonaviy andoza asosida rivojlantirish bo'yicha pilot loyiha ishlab chiqildi. Loyiha Toshkent, Qo'qon, Buxoro va Samarqand shaharlaridagi to'rtta markazni qamrab olgan. Ularning birinchisi Toshkent shahridagi “Gulshan” madaniyat markazi negizida tashkil etilmoqda. Yangi model “madaniyat — ta'lim — hordiq chiqarish — muloqot” zanjiri asosida ishlaydi. Bu yondashuv madaniyatni bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz ijodiy va ma'rifiy jarayon sifatida talqin etadi. Turli yo'nalishlardagi klublar, ustaxonalar, studiyalar va to'garaklar shu zanjirning amaliy ifodasi bo'ladi.

Taqdimotda Buyuk Britaniya Qirollik jamg'armasi maktabi tajribasi asosida Toshkent shahrida An'anaviy san'at oliy maktabini tashkil etish rejasini ham ko'rib chiqildi. Ushbu ta'lim muassasasida kulochilik, g'isht terish, manzarali bezak, yog'och o'yimkorligi, arxitektura viy xattotlik, geometrik va biomorf naqsh yo'nalishlarida bakalavriat va magistratura dasturlari amalga oshiriladi. Ta'lim ingliz tilida, ikki yillik dastur asosida olib borilishi rejalashtirilgan. 2027-yilda 50, 2031-yilga borib yiliga 80 nafar mutaxassis tayyorlash ko'zda tutilmoqda. Bu raqamlar milliy hunarmandchilik va an'anaviy san'atni global ta'lim maydoniga olib chiqish niyatini anglatadi.

Shuningdek, Milliy restavratsiya institutini tashkil etish, Samarqand shahridagi Bibixonim masjidini restavratsiya qilish, “Turkiston” yozgi amfiteatrini ta'mirlash loyihalari ham muhokama qilindi. Loyihalashtirish va restavratsiya ishlarini UNESCO bilan kelishgan holda bajarish zarurligi qayd etildi.

Bir so'z bilan aytganda, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi bugun mamlakat taraqqiyotining qo'shimcha yo'nalishi emas, balki uning strategik ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Zero, XXI asr iqtisodiyoti tabiiy resurslar emas, balki bilim, innovatsiya va ijodiy tafakkurga tayanadi. Qaysi davlat inson kapitaliga sarmoya kiritsa, etaga aynan o'sha raqobatda ustunlikka erishadi.

So'nggi qaror va tashabbuslar — huquqiy asos yaratilishi, kreativ industriya parklari tashkil etilishi, soliq imtiyozlari berilishi, madaniyat markazlarini tubdan yangilash, an'anaviy san'at ta'limini institutsionalashtirish — bularning barchasi yaxlit siyosatning o'zaro bog'liq bo'g'inlaridir. Bu islohotlar iqtisodiy o'sish sur'atini oshirish bilan birga jamiyatning ma'naviy immunitetini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Eng muhimi, kreativ iqtisodiyot g'oyasi insonni markaziy o'ranga qo'yadi. Unda yoshlarning tashabbusi, ijodkorlik erkin fikri, tadbirkorlik innovatsion qarashi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Agar davlat berayotgan imkoniyatlar jamiyatning ichki salohiyati bilan uyg'unlashsa, belgilangan 2030-yil maqsadlari shunchaki raqam bo'lib qolmaydi, balki real natijaga aylanadi.

Demak, kreativ iqtisodiyot faqat iqtisodiy model emas, balki yangi taraqqiyot manzarasidir. U moddiy boylik yaratish bilan birga ma'naviy qiymatlarni ham mustahkamlaydi. Aynan shu — iqtisodiy pragmatizm va ma'naviy yuksalish uyg'unligi mamlakatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

AQSH bilan hamkorlik O'zbekiston uchun katta imkoniyatlar ochadi. Zero, u dunyoning global yetakchi davlati sifatida siyosiy, iqtisodiy va texnologik jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyoti jahondagi eng yirik va barqarorlardan biri bo'lib, innovatsiya, sarmoya va yuqori texnologiyalar markazi hisoblanadi. Shuningdek, harbiy salohiyati ham juda yuqori. Xalqaro xavfsizlikda faol ishtiroki bilan ajralib turadi. Bunday davlat bilan hamkorlik investitsiyalar jalb etish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, xavfsizlikni mustahkamlash va xalqaro maydonda nufuzni oshirishga xizmat qiladi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi barcha sohalaridagi hamkorlikning rekord darajaga ko'targan voqealar xronologiyasi e'tiborli. 2017-yilning o'zida O'zbekiston va AQSH yetakchilari ikki marta — Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan Arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammiti hamda sentyabr oyida Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasini 72-sessiyasi doirasida uchrashdi.

2018-yil 15-17-may kunlari O'zbekiston Prezidenti AQSHlik hamkasbi taklifiga binoan ushbu davlatga AQSH oshirgan ilk rasmiy tashrifi esa tom ma'noda ikki mamlakat munosabatlari strategik sheriklikning yangi davrini boshlab berdi va uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratdi. 2023-yil 16-20-sentabr kunlari Nyu-Yorkka amaliy tashrif esa “C5+1” formatdagi birinchi sammit bilan belgilanib, mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichini mustahkamladi.

O'tgan yilning sentyabr oyi boshida O'zbekiston Prezidenti va AQSH yetakchisi o'rtasida telefon muloqoti bo'lib o'tdi. Muloqot chog'ida AQSH rahbari O'zbekistondagi islohotlarni yuqori baholadi. Bu nafaqat e'tirof, balki tom ma'noda mamlakatimizdagi o'zgarish va demokratik jarayonlarni tan olish edi.

2025-yilning sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida O'zbekiston va AQSH Prezidentlari uchrashuvi tarixiy ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbarining o'sha yil noyabr oyida Vashingtonga amaliy tashrifi sheriklikka qo'shimcha sur'at berdi.

Oq uydagi muzokaralar, AQSH va Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari ishtirokidagi “C5+1” sammiti, ma'muriyat rahbariyati, kongressmen va senatorlar bilan uchrashuvlar ikki tomonlama munosabatlar yuqori strategik darajaga chiqqanini tasdiqlaydi.

2025-yil dekabr. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Donald Trampning telefon orqali muloqoti. 2026-yil 22-yanvar kuni davlatimiz rahbari va Donald Trampning Shveysariyaning Davos shahrida Tinchlik kengashi nizomini imzolash marosimidagi uchrashuvi.

So'nggi yillar aloqalarning faollashuvida misli ko'rilmagan davr bo'ldi. Ikki davlat rahbarlarining ochiqlik, barcha yo'nalishdagi aloqalarni kuchaytirish, ularni aniq mazmun bilan boyitish yo'lida namoyon etgan siyosiy irodasi tufayli o'zaro ishonchning yuqori darajasiga erishildi.

Ekspertlarning qayd etishicha, Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan O'zbekiston ko'pgina sohalaridagi ulkan salohiyati bilan Qo'shma Shtatlarning mintaqadagi siyosatida obyektiv ravishda o'ta muhim o'rin tutadi.

Prezidentimiz tomonidan qo'shni davlatlar bilan o'zaro munosabatlarni o'zgartirish



Nuqtayi nazar

O'ZARO ISHONCH VA OCHIQ MULOQOT MUHITI

xalqaro va mintaqaviy masalalar bo'yicha pozitsiyalarni shakllantirish imkonini bermogda



**O'ZBEKISTON — AQSH YANGI STRATEGIK SHERIKLIK
DAVRINING TARIXIY MAKSIMUM DARAJASI IKKI
MAMLAKAT O'RTASIDA BARCHA SOHALARDAGI ALOQALARNI
YANADA MUSTAHKAMLAYDI.**

bo'yicha tashlangan jiddiy qadamlar esa Vashingtonda katta qiziqish uyg'otib, AQSH boshqaruv doiralari rasmiy Toshkentning Markaziy Osiyo uchun mutlaqo yangi siyosiy muhiti shakllantirishga imkon bergan zamonaviy tashqi siyosiy yo'lini to'la qo'llab-quvvatlashini ta'kidlab qoldirdi.

Masalan, 2017-yil dekabr oyida davlatimiz rahbari va Donald Tramp o'rtasida bo'lib o'tgan

telefon orqali muloqotda AQSH yetakchisi O'zbekistonning mintaq mamlakatlari bilan yaxshi qo'shni chorlik munosabatlari rivojlantirish va kooperatsiyasini faollashtirishga qaratilgan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan ochiq va konstruktiv tashqi siyosatini oqlashladi.

Shu tariqa Oq uy O'zbekistonning tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik



Mansur MUSAYEV,
siyosiy fanlar doktori, professor

va mintaqaviy sheriklik borasidagi yuqori darajadagi harakatlarini yakdillik bilan qo'llab-quvvatlab kelmoqda. “Bu ikki davlat rahbarlarining o'xshash pozitsiyalarini ham namoyon etadi”, deydi ekspertlar.

Jahon geosiyosiy muhiti juda tez o'zgarib borayotgan bugungi sharoitda O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi munosabatlar mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu hamkorlik an'anaviy siyosiy muloqotdan tortib, iqtisodiy, texnologik va gumanitar yo'nalishlarda ham chuqurlashib boryapti. Strategik sheriklikning yangi qirrasini sifatida “yashil” iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi hamkorlikni qayd etish mumkin.

Raqamli transformatsiya va innovatsiyalar sohasi ham yangi hamkorlik maydoniga aylanmoqda. AT ta'lim, startap ekotizimi, sun'iy intellekt va kibernetika bo'yicha yo'nalishlarda tajriba almashinuvi yurtimizni yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan iqtisodiyot sari yetaklaydi. Qo'shma ta'lim dasturlari, akademik almashinuv va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi hamkorlik esa yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik masalalaridagi muloqot yangi mazmun kasb etmoqda. Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiyani qo'llab-quvvatlash, transport va logistika rivojlantirish, savdo aloqalarini kengaytirish bo'yicha tashabbuslar ikki tomonlama munosabatlarning strategik ahamiyatini oshirmogda.

Eng muhimi, bu hamkorlik O'zbekistonning tenglik, o'zaro hurmat va amaliy manfaatlariga asoslangan ochiq va pragmatik tashqi siyosati hamda AQSHning global iqtisodiy imkoniyatlari uyg'unlashgan holda yangi marralarni zabt etishga zamin yaratadi.

O'zbekiston — AQSH strategik munosabatlari, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalarida barqaror rivojlanib bormogda. Xususan, o'tgan yili tovar ayirboshlash hajmi bir milliard dollardan oshdi. Qo'shma ishlabilmonlik va investitsiya kengashi tashkil etilishi esa bu ko'rsatkichlarni yanada oshiradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Prezidenti va AQSH yetakchisi o'rtasidagi do'stona va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar siyosiy ishonchni mustahkamlashda muhim omil bo'layotir. O'zaro ishonch va ochiq muloqot muhiti xalqaro va mintaqaviy masalalar bo'yicha ham muvofiq pozitsiyalarni shakllantirish imkonini bermogda. Ayniqsa, global xavfsizlikka hissa qo'shish borasidagi yondashuvlar tomonlarni yanada yaqinlashtirdi. Xususan, O'zbekiston Tinchlik kengashi nizomini imzolab, yangi xalqaro platformaning ta'sischi davlatiga aylandi.

Tinchlik kengashi tashkil etilishi O'zbekiston tashqi siyosatining tinchlikni ta'minlash borasidagi tashabbuslari va ko'p qirrali hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalariga mosdir. Tinchlik kengashi mojaro keskinligini kamaytirish, G'azvo sektorida iqtisodiy va ijtimoiy tiklanish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston — AQSH yangi strategik sheriklik davrining tarixiy maksimum darajasi ikki mamlakat o'rtasida barcha sohalaridagi aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

